



QADIMGISHARQ FALSAFASI TARIXI VA MADANIYATI

Nematova Oyjamol Jaxongir qizi
Musurmonova Dilchiroy Bekzod qizi
Choriyeva Madina Komil qiz

*SHahrisabz davlat pedagogika institute Xorijiy til va adabiyot
fakultiti 1-kurs talabalari Murojaat uchun:*

nematovaoyjamol451@gmail.com
dilchiroy19@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Qadimgi Sharq falsafasi va madaniyati shakllanishining asosiy omillari, uning turli oqimlari, Bobil va Misr xalqlarining urf-odatlari, ma'daniyati hamda jamiyatga ta'siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ushbu falsafaning bugungi kun uchun ahamiyati ham yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Qadimgi Sharq falsafasi, Sharq madaniyati, Bobil falsafasi, Misr falsafasi, Qadimgi sivilizatsiya, madaniyat, ma'naviyat.*

Аннотация: В данной статье анализируются основные факторы формирования философии и культуры Древнего Востока, различные её течения, а также обычаи, культура и влияние вавилонского и египетского народов на общество. Кроме того, рассматривается актуальность данной философии в современном мире.

Ключевые слова: Древневосточная философия, восточная культура, вавилонская философия, Египетская философия, Древняя цивилизация, Культура, Духовность.

Abstract: This article analyzes the main factors in the formation of Ancient Eastern philosophy and culture, its various currents, as well as the customs, culture, and societal influence of the Babylonian and Egyptian peoples. Additionally, the relevance of this philosophy in today's world is explored.

Keywords: Ancient Eastern philosophy, Eastern culture, Babylonian philosophy, Egyptian philosophy, Ancient civilization, Culture, Spirituality.

Ilk falsafiy ta'limotlar qadimi Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va Yunonistonda paydo bo'lgan, keyin G'arb mamlakatlariga yoyilgan. Qadimgi Hindistondagi falsafiy maktablar 2 turga bulinib, biri vedalaraxm kelib chiqqan va





ularga suyanuvchi maktablar (vedanta, yoga, vaysheshika, nyaya, sankxya), ikkinchisi vedalarni rad etuvchi maktablar (jaynizm, buddizm, lokoyata) hisoblanadi. Qadimgi Xitoydagi dastlabki falsafiy ta'limotlar miloddan avvalgi 7-asrda vujudga kelgan. U Qadimgi Xitoy yozma manbalarida uchrab, bu manbalarga „Qo'shiqlar kitobi“, „Bahor va kuz“ kabi qadimiy yodgorliklar va Konfutsiynnng „Aforizm“larini, daosizmni kiritish mumkin.

Qadingi sharq-insoniyat madaniy taraqqiyoting ilk bosqichlarida yetakchi ro'1 o'ynagan hududlardan biri. Bu yerda ilk yozuvlar, davlat boshqaruv tizimlari, diniy e'tiqodlar va falsafiy qarashlar shakllangan. Qadimgi sharq xalqlari (shu jumladan, bobilliklar, ossuriylar, misrliklar, hindlar va xitoyliklar) o'ziga xos falsafiy qarashlar orqali dunyoni, jamiyatni va insonning bu dunyodagi o'rnnini anglashga harakat qilishgan. Falsafa bu davrda diniy va mifologik tasavvurlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayni paytda ijtimoiy-siyosiy hayotda ham muhim rol o'ynagan.

Sharq falsafasi atamasi bilan Osiyo qit'asida paydo bo'lgan falsafiy oqimlar, qarashlar majmuasi nomlanadi. Sharq falsafasiga hind, xitoy, fors, yapon, koreys hamda O'rta Osiyo falsafasi kiradi. Bu ro'yxatga ba'zan Bobil va Arab falsafasi ham kiritiladi, biroq bular g'arb falsafasiga ham taalluqlidirlar. Ko'pgina jamiyatlar falsafiy muammolarni ko'rib chiqishdi va boshqa jamiyatlar ishlari asosida o'z falsafiy an'analarini qurishdi. Masalan, Yaqin Sharq falsafasi G'arb falsafasi ta'siri ostida bo'ldi. Rus (ba'zilar buni G'arb falsafasiga taalluqli, deb ko'rishadi), Yahudiy, Islomiy, Afrika va ba'zi Lotin Amerikasi falsafiy an'analarini G'arb falsafasidan ta'sirlanishdi; biroq, o'zlarining aslliklarini ham yo'qotishmadidi. Bu an'analar orasidagi farqlar xush ko'rilgan tarixiy faylasuflar, g'oyalari, uslublar yoki tillar bilan aniqlanadi. Ularni bir-biriga tegishli metodlar bilan o'rgansa bo'ladi va ular orasida sezilarli umumiyliliklar bor. Markaziy Osiyodagi falsafiy qarashlar qadimgi turkiy yozuvlar, tangriga e'tiqod qilish tamoyillarida va zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, Sharq xalqlarining tabiatning asosiy unsurlari yer, suv, havo va olovni e'zozlash haqidagi naturfalsafiy qarashlari va g'oyalari Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga keng yoyilib Qadimgi Misr, Bobil, Lidiya mamlakatlari xalklarining tafakkur tarziga singib ketgan. Yunonistonning ilk falsafiy maktabi — Milet maktabi ham o'z g'oyalariini Sharkdan olganligi tadqi qotchilarga ma'lum. Miloddan avvalgi 2—1-asrlarda Marv, Balx, Termiz, Sig'noq, Samarqand, Buxoro zaminini o'ziga qamrab olgan hududda kushonlar sultanati qaror topib, unda budda dini xukm suradi, uning falsafasi bu joyda yashovchi xalqning tafakkur tarziga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ammo Avesto g'oyalari xalq ongidan butunlay chiqib ketmaydi.





Milodiy 3-asrga kelib tenglik g‘oyalarini ilgari suruvchi moniylik ta’limoti paydo bo‘ldi. Bu ta’limot mazdakiylar harakatinnnt ma ’naviy tayanchi bo‘lgan. Hind ostqit’asi tarixida Oriy-Vedik madaniyat o‘rnatilganidan so‘ng ikki ming yillik davr ichida falsafiy va diniy mutafakkirlik oltita Nastika maktablari paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu maktablar hinduizm bilan chambarchas bog‘langan edilar. Hind falsafasi Janubiy Osiyo madaniyatining katta qismini qurgan va Uzoq Sharqqa ham dharmik dinlar orqali yetib borgan. Undagi fikrlar pluralizmi hind falsafasini liberal universalizm shakliga keltirgan. Buddizim dining asoschisi Buddha (Siddharta Gautama) ham falsafada ham o‘z fikrlarini bildirgan. U: “Hayot azob bilan to’la, azobdan qutilish yo’li mavjud”, -degan fikrlarni bildirgan.

Fors falsafasi tarixi Qadimgi Eron falsafiy an’analari va ularning hind-eron ildizlariga borib taqaladi. Fors falsafasi Zardusht ta’limotidan ta’sirlangan. Eron tarixidagi turli urushlar — Iskandar Zulqarnayn, arablar va mo‘g‘ullar istilolari turli madaniyatlar, dinlar aralashuvi va natijada turfa falsafiy maktablar paydo bo‘lishiga olib keldi. Bularga zardushtiylik va islom ta’limotlari, yunon falsafasi ta’siridagi oqimlar, manixeylik, mazdakiylik va boshqalar kiradi. Zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da ham falsafiy fikrlar keltirilgan. Ezgu fikr, ezgu so’z, ezgu amal bu uchlik zardushtiylikning asosiy axloqiy tamoyilidir.

Qadimgi Sharq falsafasi bo‘yicha bir qancha ilmiy manbalar bor shulardan F. Kopleston – Sharq falsafasi tarixi. Ushbu asar Sharq tafakkurining shakllanishi va asosiy falsafiy oqimlarini tahlil qiladi. G. F. Aleksandrov – Qadimgi Sharq va Yunon falsafasi. Kitobda qadimgi sivilizatsiyalar tafakkuri va ularning o‘zaro aloqalari yoritilgan. B. G. Gafurov – Sharq falsafasi tarixi. Ushbu asar Qadimgi Sharq falsafiy ta’limotlari va jamiyatga ta’sirini yoritadi.

Bobil va Misr madaniyati bo‘yicha tadqiqotlar haqidagi manbalar: S. N. Kramer – Tarix Bobil bilan boshlanadi. Ushbu kitob Bobil sivilizatsiyasi, uning madaniyati va falsafiy qarashlari haqida batafsil ma’lumot beradi. J. H. Breasted – Qadimgi Misr tarixi. Muallif Misr madaniyati, diniy e’tiqodlari va urf-odatlari haqida batafsil ma’lumot beradi. E. Hornung – Misr dini va falsafasi. Ushbu tadqiqot qadimgi misrliklarning diniy qarashlari va falsafiy tafakkurining shakllanishini tahlil qiladi.

Qadimgi Sharq jamiyatining urf-odatlari va falsafasi haqidagi manbalar: H. Frankfort – Sharq falsafasi va mifologiyasi. Bu kitob Qadimgi Sharq madaniyati va diniy e’tiqodlari orasidagi bog‘liqlikni ochib beradi.





M. Eliade – Muqaddas va dunyoviy. Ushbu tadqiqot qadimgi jamiyatlarda diniy marosimlar va falsafiy qarashlar qanday bog‘liqlikda bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi.

Qadimgi Bobil hoqonligi (1894-1595) o‘z yuqori cho‘qqisiga Xammurapi (1792-1750) davrida erishdi. U ikkinchi ming yilning o‘rtalarida xettlar va kassitlar tomonidan yakson qilindi. Kassit dinastiyasi (1518-1202) tarixi to‘g‘risida ma’lumotlar kam. Eramizgacha VII-asrda Mesopotamiyaning tog‘oldi qismida assuriyaliklar dastlabki yirik Yaqin Sharq davlatini barpo etib, uning hududi Erondan Misrgacha bo‘lgan joylarni qamrab olgan edi. Bobilning ikkinchi gullab-yashnashi Yangi Bobil hoqonligiga to‘g‘ri keladi (612-538). U forsiylar tomonidan yakson qilingan. Qadimgi Bobil –“bronza davri” madaniyatining tip ik namunasi. U to‘g‘risidagi manbalar toshdagi va qotgan loydagi yozuvlar bo‘lib, ular assuriya-bobil (akkad) tilida bitilgan. Assuriya xukmdori Ashshurbanipal kutubxonasida 30 mingdan ko‘proq loy jadvallar mavjud bo‘lgan. Matnlarda ish xujjatlari, qoidalar, tarixiy ma’lumotlar, tibbiy retseptlar, lug‘atlar, matematik masalalar, xudolar sharafiga bag‘ishlangan bitiklar qayd etilgan. Ularda qadimgi ilmiy va dunyoqarash mazmuniga ega ma’lumotlar ham o‘z aksini topgan.

Ilmiy bilimlar bilan uzviy bog‘liq holda ratsional bilish, tafakkur ko‘nikmalari hosil bo‘la boradi, falsafiy dunyoqarash elementlari shakllana boshlaydi. Lekin Bobilda falsafa paydo bo‘lgan emas. Hatto, Yangi Bobil hoqonligi davrida ham olamning tuzilishi mif, afsonalar asosida tushuntirilgan. Ilmiy bilim kurtaklari hali fanni hosil qilish darajasigacha rivojlanmagan .Markaziy Osiyoda “Avesto” ta’limotidagi falsafiy fikrlar. Eramizdan oldingi VI asrdan boshlab Markaziy Osiyoda zardushtiylik diniy-falsafiy ta’limoti vujudga kelib, eramizning III asrigacha hukmronlik qildi.

Zardushtiylikning vatani sifatida Markaziy Osiyo (Baqtriya, Xorazm) va Eron (Midiya) ko‘rsatiladi. Zardushtiylikda eng qadimgi davrlardan boshlab (eramizdan oldingi III-II-nchi ming yilliklar) eramizdan oldingi 1-ming yillik o‘rtalarigacha bo‘lgan Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining diniy va ma’lum ma’noda falsafiy tasavvurlari aks etgan. Zardushtiylikda xalqni ezgulik va adolat g‘oyalariga da’vat etish, hayotbaxsh an’analarni shakllantirish, dehqonchilik va shahar madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etgan.

Misrlik astronomlar osmonni kuzatishgan, u amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan. Masalan, Nil daryosining har yilda toshishi Misr osmonida eng yarqin yulduz-Siriusning paydo bo‘lishiga to‘g‘ri kelgan. Misrlik olimlar eklip tika Quyoshning yulduzlar to‘plamidagi ko‘rinishidan kelib chiqib, uni 12 qismga bo‘lishgan va ular





yig‘indisi Zodiakni, ya’ni “xayvonlar doirasi”ni hosil qiladi, deb hisoblashgan. Ekiptikadagi har bir yulduzlar turkumiga qandaydir bir hayvon nomi berilgan. 1,5 ming yil davomida Misr olimlari 373 marta Quyosh, 832 marta Oy utilishini kuzatishgan. Qadimgi Misr kalendar 12 oydan tashkil topgan bo‘lib, ularning har birida 30 kun bo‘lgan. Yil boshida hech bir oyga kirmaydigan beshta muqaddas kun bo‘lgan. Keyinchalik Quyosh-Oy kalendar yaratildi. Oy kalendarini Quyosh kalendariga moslashtirish uchun har 25 yilda 13-oy qo‘shilgan. Sutka vaqtı Suv va Quyosh soatlari bilan o‘lchangan.

Sharq falsafasi-sharq xalqining qadimdan shakllangan fikrlash tarzi, hayotga inson va tabiatga bo‘lgan qarashlartizimi bo‘lib kelgan. Qadimgi sharq falsafasi bugungi zamonaviy tafakkurning negizida yotadi. Bu falsafiy meros insonning ma’naviy o’sishi, axloqiy yetuklikka erishish va jamiyatda uyg’unlik yaratishda katta ahamiyatga ega. Falsafa bu davrda diniy e’tiqodlar bilan chambarchas bog’liq bo’sa-da, lekin falsafa hayotiy tajriba, dunyoqarash va insonning tub mohiyatini anglab yetish uchun buyuk qadamlardan biri bo‘lgan. SHarq falsafasi G’arb falsafasiga ko’ra ko’pror ruhiy-axloqiy jihatga yo’naltirilgan bo‘lib, insonni ichki dunyosini tozalash va jamiyatga totuvlikni ta’minlashga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.A.po’latova, M.Q.Qodirov, J.B.Sulaymonov-“SHarq falsafasi va madaniyati tarixi”(Toshkent-2018).
2. D.A.Po’latova. G.M.Ro’zmatova-“G’arb falsafasi tarixi” (Toshkent-2018) o’quv qo’llanma.
3. G.Ro’zmatova. R.Karimov.D.Rahimdjanova. R.Bekbayev “SHarq va G’arb falsafasi tarixi” (“Fan va ta’lim” nashriyoti, Toshkent-2023 1-jild).
4. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." *Journal of Survey in Fisheries Sciences* 10.1S (2023): 5000-5006.
5. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
6. Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go‘zal Aralovna Ochilova, and Sitora Ayonovna Azamova. "SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS



7. ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." *World of Scientific news in Science* 1.3 (2023): 15-28.
8. Ayonovna, Azamova Sitora. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." *Global Scientific Review* 13 (2023): 7-10.
9. Ayonovna, Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o'g'li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ." *TADQIQOTLAR. UZ* 40.4 (2024): 135-139..
10. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35..
11. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
12. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI//Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №.1.
13. Azamov S.A PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION BEST JOURNAL OF INNATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT.-2024.T. 3.-C.743-749. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.

